

O'ZBEKISTONDA BADIY TA'LIM ART KLASTERINI TASHKIL ETISHDA IJODKORNING BADIY KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH



Umarov Abduxamid Sattarovich

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti

"Informatika va menejment"

kafedrasи professorи, i.f.n,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti (DSc) mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: O'zbekistonda badiiy ijod va faoliyat asosi bo'l mish, badiiy va estetik ong va tafakkurni rivojlantirishda ijodkorning badiiy kompetentsiyalari zaruriy omillardan sanaladi. Badiiy san'atning rivojida ijodkorda shakllanishi kerak bo'lgan badiiy Art kompetentsiyalar xaqida keng taxlil keltirilgan bo'lib, badiiy ta'limga rivojlantirishda badiiy uslub va omillar tavsifi keltirilgan.

Kalit so'zlar: badiiy ta'lim, badiiy kompetentsiya, ijodkor, badiiy – estetik tafakkur, badiiy ong, badiiy va amaliy san'at, dizayn, san'at muktablari.

Аннотация: В статье рассматривается развитие художественного и эстетического сознания и мышления, являющихся основой художественного творчества и деятельности в Узбекистане. Отмечается, что художественные компетенции творческой личности являются важнейшим фактором этого процесса. Проведен подробный анализ художественных компетенций, которые должны формироваться у художника, а также описаны художественные стили и факторы, влияющие на развитие художественного образования.

Ключевые слова: художественное образование, художественная компетенция, творец, художественно-эстетическое мышление, художественное сознание, изобразительное и прикладное искусство, дизайн, художественные школы.

Abstract: In Uzbekistan, the development of artistic and aesthetic consciousness and thinking, which form the foundation of creative activity, is considered essential. The article provides a detailed analysis of the artistic competencies that should be developed in artists and explores the characteristics of artistic styles and factors that contribute to the advancement of art education. Artistic competence is emphasized as one of the key elements in nurturing creativity and artistic development.

Keywords: art education, artistic competence, creator, artistic and aesthetic thinking, artistic consciousness, fine and applied arts, design, art schools.

Kirish. Davlat madaniy siyosati madaniyatning ulkan ta'limga va tarbiya salohiyatini tan olishga va shaxsni shakllantirish jarayonida undan maksimal darajada foydalanish zarurligiga asoslanadi. Davlat madaniy siyosatining asoslarida madaniyat milliy ustuvorliklar darajasiga ko'tariladi va hayot sifatining o'sishi va jamoatchilik bilan aloqalarni uyg'unlashtirishning eng muhim omili, yagona madaniy makon va milliy hududiy yaxlitligini saqlash kafolati sifatida tan olinadi.

Bularning barchasi badiiy - ijod sohalarni rivojlantirish, madaniy siyosatning ongi ustuvorligiga aylanib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, madaniy jumladan badiiy ta'limga klasterlarga alohida rol beriladi. Badiiy ta'limga klasteri davlat va shahar madaniyati va san'at muassasalari uchun zaruriy qo'shimcha vazifasini bajaradi. Badiiy madaniyatni qo'llab-quvvatlash orqali zamonaviy ijodiy jamiyatni yaratish va ilm-fan sohasida yuqori yutuqlarga erishish mumkin, chunki u innovatsion g'oyalarni rivojlantirish uchun asos sanaladi.

O'zbekiston Respublikasini 2022 — 2026 yillar davomida rivojlantirishga qaratilgan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida: Tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish, atoqli O'zbekiston xalq rassomlari va

amaliy san'ati ustalarining namunali hayoti va ijodini keng targ'ib qilish hamda ular xotirasini abadiylashtirish, O'zbekiston tasviriy va amaliy san'atini xalqaro darajada ommalashtirish, tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalişlarida etuk mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish kabi vazifalar etakchi o'rinni egallaydi. Zero xalqning badiiy-madaniy turmush tarzi, uning keljakda dunyo xalqlari ichida tutgan o'rnini, o'zbek xalqining madaniy va ma'naviy me'rosining keng targ'ib etilishiga sabab bo'ladi [1].

Har bir rivojlangan davlatning davlat siyosatini amalga oshirishda ustuvor yo'nalişlaridan biri sifatida san'at sohasi sanaladi. Badiiy ta'limni rivojlantirish, xalqning ko'p yillik o'tmishini, uning tarixiy turgan o'rnini belgilovchi madaniy yodgorliklar va ularni rivojlantirishda keng qo'llaniladigan milliy badiiy usullar etakchi bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Muayyan sohani rivojlantirish maqsadida Klaster tizimini joriy etish yangi ish o'rnlari yaratish, hududning ijtimoiy iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash, investision jozibadorligini kuchaytirish, maxalliy byudjet mablaglarini oshirish, vakolatlarni markazlashishdan uzoqlashtirish, tadbirkorlarning o'zaro xamkorlik qilishi, axborotlar almashish jarayonlarining kuchayishi, innovasiyalarni targ'ib kilish, xususiy sektorning rivojlanishi bilan bog'liq yangi imkoniyatlarni yaratadi.

Soha uchun klasterlar investision loyihalarda samarali katnashish, iqtisodiy ma'noda, yangi bozorlarga chiqish, innovation loyixalarni o'zlashtirish va uni tatbik etish bilan bog'liq harajatlarni kiskartirish, sohaning infratuzilmasini takomillashtirish, xodimlarning bilim, malaka va ko'nikmalarini oshirish, pirovardida, sohaning raqobatbardoshligini oshirish omili sanaladi. Klasterlar nafaqat Klaster sub'ekti bo'lgan korxonaning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshiradi, shu bilan birga, xududning tadbirkorlik bilan bog'lik infratuzilmasi va muhitini shakllantirishga xam ko'maklashadi[1].

Klasterli o'qitish badiiy ta'limda nisbatan yangi yo'naliş bo'lib, uni o'quv jarayoniga joriy etish pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va malakali mutaxassisni shakllantirish samaradorligini tajriba sinov ishlarida tekshirishni talab qiladi. Klasterdag'i ta'lim muhitining roli innovation mahsulotlar ishlab chiqarishdir. Mintaqaning ilmiy-tadqiqot institutlari va sanoat muassasalari amaliyotning asosiga aylanadi va ularning ehtiyojlari va rivojlanish istiqbollariga muvofiq o'z ilmiy va o'quv bazasida mutaxassisni shakllantirishda ishtirok etish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Ta'limda Klaster yondashuvini qo'llash amaliyoti Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Malayziya, Marokash, Iordaniya, Misr, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari kabi mamlakatlar tajribasida mavjud. Xususan, bu borada Xitoy tajribasida innovation klasterlar, asosan, Pekindagi Tsinxua hamda Shanxaydagi Fudon universitetlarida, shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlari, biznes-inkubator shaklida tashkil qilingan ilmiy-texnik parklar, ilmiy markazlar atrofida shakllantirilgan. Bunday innovation klasterlar hukumat grantlarini, mahalliy va chet ellik mutaxassislarni o'ziga jalb qiladi va professional ta'lim beruvchi muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududidagi badiiy ta'limni rivojlantirish bo'yicha ko'plab me'yoriy va normativ hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning amaliy ijrosi ta'lim klasteri doirasida badiiy ta'lim klasterini shakllantirish zaruriyatini ko'rsatadi. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, Vengriya, Avstralija Klaster tizimi, Skandinaviya klasteri, German klasteri, inglizzabon klasteri, Roman klasteri, Lotin Amerikasi klasteri, uzoq va yaqin Sharq klasteri, Arab klasteri mavjud bo'lib [4], har bir ta'lim klasterining asosiy tarmoqlaridan bo'lgan badiiy ta'lim klasterini shakllantirish, badiiy ta'limning ta'lim-tarbiyaviy negizini yoritish dolzarb sanaladi.

Badiiy ta'limni rivojlanishi xorijiy davlatlarda Art-Klaster shaklida taraqqiy etib, bu boradi Kanada, Angliya, Frantsiya, Rossiya, Qozoqiston davlatlari badiiy ta'lim sohasida olib borayotgan faoliyatini tizimli tahlil qilish natijasida shunday xulosaga kelindiki, O'zbekiston hududida faoliyat yuritayotgan badiiy san'at sub'ektlari faoliyatini uzviyligini va izchilligini ta'minlash, badiiy ta'lim sohasining salmoqli taraqqiyotiga xizmat qilishi prognozlanmoqda [6]. Zero, badiiy san'at sohasini klasterli boshqaruv - bu zamonaviy menejment va san'atshunoslikning tarkibiy qismi hisoblanib, madaniy va ijodiy jarayon uchun sharoit yaratuvchi tizim sifatida san'atni idrok etishdan kelib chiqadi va jamiyatning madaniy hayot darajasini oshirish maqsadida insonlarning madaniyat va

san'at sohasidagi mehnat natijalari bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan faoliyat sifatida nazarda tutiladi.

Muxokama va tahlil

Barcha san'at turlarida ruhiyatining betakror, tizginsiz, jo'shqin va tushkin iztiroblarini tasvirlash ijodkorning asl maqsadiga aylanadi. O'z san'at asarlarida insonning qalb iztiroblari, orzu-armonlari tasvirlanadi. Xo'sh, ijodkor kim o'zi? Ijodkor – rassom, ijodkor – haykaltarosh, ijodkor – bastakor, ijodkor – yozuvchi... ular inson ruhiyatidagi kishi ilg'amas his-tuyg'ularni, dard, iztirob, quvonch va baxtni nozik tasvirlar orqali ifodalovchi san'atkorlardir.

Ijodkor ahli tafakkur, aql, kuchli ruhiy taassurot asosida hayot haqidagi xulosalarni bizga qaysidir shaklda uzatadi.

Badiiy ta'lif sohasida faoliyat yuritayotgan yosh ijodkorlarning qobiliyatini rivojlantirish va yuzaga chikarish, yuksak saviyadagi asarlarni yaratish; "Ustoz-shogird" an'analarini savlagan holda badiiy ta'lif an'analarini yosh ijodkorlarni o'kitishning ilgor usullarini ishlab chiqish va ijodiy ijodiy ustaxonalar faoliyatiga tadbiq etish; tasviriy san'at yo'nalishlarida (dastgohli, grafika, mahobatli, miniyatura, haykaltaroshlik) faoliyat olib borayotgan iste'dodli yosh ijodkorlarni saralab olish, ularning estetik didi va mahoratini yuksaltirish klasterning asosiy faoliyat maqsadi bo'lishi kerak [5].

Har bir inson dunyoni idrok qiladi, tasavvur qiladi, yaqqolroq his etib boradi. Kuzatishlar asosida ko'pdan-ko'p taassurotlar xosil qilib, ko'rib, eshitib, o'qib hotirada ancha yorqin iz qoldirishiga harakat qiladi. Bu psixologik tushunchalar va birliklar badiiy asar yaratishda juda ham zarur bo'lib, borliqni badiiy estetik, hissiy - emosional anglashning asosini tashkil etadi.

Badiiy tafakkurning asosiy vazifasi ijodkor ongida voqelikning badiiy obrazlarini shakllantirish, shuningdek, asar iste'molchilarini ongida ularni zavqlantirish, ta'sir xissini o'tkazishdir. Badiiy fikrlash badiiy ongning boshqa shakllari bilan o'zaro aloqada davom etadi va ijodiy jarayonning barcha bosqichlarida, hayotiy taassurotlarning to'planishidan tortib, g'oyaning materialda mujassamlanishiga qadar ishlaydi. Demak, badiiy tafakkurning hayolotdan amaliyotga ko'chishi, uni badiiy kompetentsiyalar shaklida taraqqiy etishi murakkab jarayon sanaladi va bir necha muhim bosqichlarni bosib o'tadi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak amaliy san'at o'qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni shakllantirish omillari sifatida quyidagilarni qayd etib o'tish lozim:

- talabalarning mustaqil badiiy-estetik faoliyatni amalga oshirishi uchun zarur motivlari va shaxsiy sifatlari yig'indisi;
- badiiy-estetik faoliyatga doir bilim va ko'nikmalari;
- egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini badiiy-estetik faoliyat jarayonida qo'llay olish qobiliyati va tayyorlik darajasi.

Aqliy faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri badiiy tafakkur ya'ni fikrlash jarayonidir. Badiiy tafakkur - bu badiiy ongning eng yuqori darajasini ko'rsatadigan san'at asarlarini yaratishga, shuningdek idrok etish va tushunishga qaratilgan ma'naviy faoliyat turi .

Badiiy ta'limi o'rganishdagi tadqiqotlar, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda ularning badiiy tafakkurini rivojlantirish vositasi sifatida strategik va taktik maqsadlarni aniqlash metodologiyasini taklif qilishadi.


Natija

Badiiy tafakkurning asosiy vazifasi ijodkor ongida voqelikning badiiy obrazlarini shakllantirish, shuningdek, asar iste'molchilarini ongida ularni zavqlantirish, ta'sir xissini o'tkazishdir. Badiiy fikrlash badiiy ongning boshqa shakllari bilan o'zaro aloqada davom etadi va ijodiy jarayonning barcha bosqichlarida, hayotiy taassurotlarning to'planishidan tortib, g'oyaning materialda mujassamlanishiga qadar ishlaydi. Badiiy fikrlash jarayoni ijodiy jarayonga asoslanadi: u g'oyani izlash va topish, ushbu g'oyani rivojlantirish, g'oya atrofida yaratish va nihoyat, tajriba almashish va tushunish /aks ettirish jarayonini aniq aks ettiradi.

Xaqiqiy san'at asari – o'zida badiiy obraz shaklida hali bungacha bo'limgan yangilikni yaratilishi hisoblanadi. Badiiy ijod esa ijodiy jarayon orqali amalga oshiriladi. Bunda ijodkor g'oyaviy-badiiy mazmunni jam etgan holda tugal badiiy asar yaratadi. Ijod va ijodiy jarayonlar

xuddi fandagidek san'atda ham o'zining murakkab ko'rinishlari va xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Badiiy tafakkur - bu badiiy asarlarni yaratishga, shuningdek, ularni idrok etish va tushunishga qaratilgan ma'naviy faoliyat turi bo'lib, badiiy ongning eng yuqori darajasi sanaladi. Badiiy tafakkurning asosiy vazifasi ijodkor ongida vogelikning badiiy obrazlarini shakllantirish, shuningdek, badiiy ijodni iste'molchilari onggiga obrazli, etkaza olishdan iborat. Badiiy tafakkur badiiy ongning boshqa shakllari bilan o'zaro aloqada davom etadi va ijodiy jarayonning barcha bosqichlarida faoliyat ko'rsatadi:



1-rasm. Badiiy – ijodiy tafakkurdan badiiy estetik kompetentlikkacha bo'lgan * hayotiy taassurotlarni to'plash,

- * asar g'oyasini yaratish,
- * uning ushbu badiiy san'at turining o'ziga xos vositalari yordamida materialda mujassamlanishini yaratadi.

tadrijiy jarayon.

Badiiy ijodni rivojlantirishda albatta tafakkur va ong rivoji va uning bosqichlarini ta'kidlash, uni shakllantirish bosqichlarini anglash lozim. Ijod - bu ongning oliv darajasi, estetik olamni anglash faoliyatning yuqori va ancha murakkab shakli bo'lib, bunday konnitiv jarayon faqat insonga hosdir. Ijod insonning barcha psixik jarayonlarni, barcha bilim, malaka, barcha hayotiy tajriba, ahloqiy, jismoniy kuchini mobilizasiyasi natijasida o'ziga xos va tarixiy-ijtimoiy, betakror sifat yangiliklari bo'lib bu ijodkorlik qobiliyati tug'ma va orttirilgan xolda namoyon bo'ladi.

Badiiy ijod ijodkorning ob'ektiv borliqni o'z qarashlari orqali turli qiyofalarda his qilish, uning shakldagi xususiyatlarni badiiy asarlar va obrazlar tarzida aks ettirishdir. Quyidagi modelda badiiy – ijodiy tafakkurdan badiiy estetik kompetentlikkacha bo'lgan tadrijiy jarayon tasvirlangan bo'lib, etuk ijodkorning shakllanishidagi ongning faoliyat yo'li sifatida tahlil etiladi..

Barcha san'at turlarida ruhiyatining betakror, tizginsiz, jo'shqin va tushkin iztiroblarini tasvirlash ijodkorning asl maqsadiga aylanadi. O'z san'at asarlarida insonning qalb iztiroblari, orzu-armonlari tasvirlanadi. Xo'sh, ijodkor kim o'zi? Ijodkor – rassom, ijodkor – haykaltarosh, ijodkor – bastakor, ijodkor – yozuvchi... ular inson ruhiyatidagi kishi ilg'amas his-tuyg'ularni, dard, iztirob, quvonch va baxtni nozik tasvirlar orqali ifodalovchi san'atkorlardir.

Ijodkor ahli tafakkur, aql, kuchli ruhiy taassurot asosida hayot haqidagi xulosalarni bizga qaysidir shaklda uzatadi.

Badiiy ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan yosh ijodkorlarning qobiliyatini rivojlantirish va yuzaga chikarish, yuksak saviyadagi asarlarni yaratish; "Ustoz-shogird" an'alarini savlagan holda badiiy ta'lim an'analarini yosh ijodkorlarni o'kitishning ilgor usullarini ishlab chiqish va ijodiy ijodiy ustaxonalar faoliyatiga tadbiq etish; tasviriy san'at yo'nalishlarida (dastgohli, grafika, mahobatli, miniatyura, haykaltaroshlik) faoliyat olib borayotgan iste'dodli yosh ijodkorlarni saralab olish, ularning estetik didi va mahoratini yuksaltirish klasterning asosiy faoliyat maqsadi bo'lishi kerak.

Har bir inson dunyonidirok qiladi, tasavvur qiladi, yaqqolroq his etib boradi. Kuzatishlar asosida ko'pdan-ko'p taassurotlar xosil qilib, ko'rib, eshitib, o'qib hotirada ancha yorqin iz goldirishiga harakat qiladi. Bu psixologik tushunchalar va birliklar badiiy asar yaratishda juda ham zarur bo'lib, borliqni badiiy estetik, hissiy - emosional anglashning asosini tashkil etadi [3].

Badiiy tafakkurning asosiy vazifasi ijodkor ongida voqelikning badiiy obrazlarini shakllantirish, shuningdek, asar iste'molchilari ongida ularni zavqlantirish, ta'sir xissini o'tkazishdir. Badiiy fikrlash badiiy ongning boshqa shakllari bilan o'zaro aloqada davom etadi va ijodiy jarayonning barcha bosqichlarida, hayotiy taassurotlarning to'planishidan tortib, g'oyaning materialda mujassamlanishiga qadar ishlaydi. Demak, badiiy tafakkurning hayolotdan amaliyotga ko'chishi, uni badiiy kompetentsiyalar shaklida taraqqiy etishi murakkab jarayon sanaladi va bir necha muhim bosqichlarni bosib o'tadi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak amaliy san'at o'qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni shakllantirish omillari sifatida quyidagilarni qayd etib o'tish lozim:

- talabalarning mustaqil badiiy-estetik faoliyatni amalga oshirishi uchun zarur motivlari va shaxsiy sifatlari yig'indisi;

- badiiy-estetik faoliyatga doir bilim va ko'nikmalari;
- egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini badiiy-estetik faoliyat jarayonida qo'llay olish qobiliyati va tayyorlik darajasi.

Aqliy faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri badiiy tafakkur ya'ni fikrlash jarayonidir. Badiiy tafakkur - bu badiiy ongning eng yuqori darajasini ko'rsatadigan san'at asarlarini yaratishga, shuningdek idrok etish va tushunishga qaratilgan ma'naviy faoliyat turi .

Badiiy ta'limni o'rganishdagi tadqiqotlar, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda ularning badiiy tafakkurini rivojlantirish vositasi sifatida strategik va taktik maqsadlarni aniqlash metodologiyasini taklif qilishadi.

Natija

Badiiy tafakkurning asosiy vazifasi ijodkor ongida voqelikning badiiy obrazlarini shakllantirish, shuningdek, asar iste'molchilarini ongida ularni zavqlantirish, ta'sir xissini o'tkazishdir. Badiiy fikrlash badiiy ongning boshqa shakllari bilan o'zaro aloqada davom etadi va ijodiy jarayonning barcha bosqichlarida, hayotiy taassurotlarning to'planishidan tortib, g'oyaning materialda mujassamlanishiga qadar ishlaydi. Badiiy fikrlash jarayoni ijodiy jarayonga asoslanadi: u g'oyani izlash va topish, ushbu g'oyani rivojlantirish, g'oya atrofida yaratish va nihoyat, tajriba almashish va tushunish /aks ettirish jarayonini aniq aks ettiradi [4].


Xaqiqiy san'at asari – o'zida badiiy obraz shaklida hali bungacha bo'limgan yangilikni yaratilishi hisoblanadi. Badiiy ijod esa ijodiy jarayon orqali amalga oshiriladi. Bunda ijodkor g'oyaviy-badiiy mazmunni jam etgan holda tugal badiiy asar yaratadi. Ijod va ijodiy jarayonlar xuddi fandagidek san'atda ham o'zining murakkab ko'rinishlari va xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Badiiy tafakkur - bu badiiy asarlarni yaratishga, shuningdek, ularni idrok etish va tushunishga qaratilgan ma'naviy faoliyat turi bo'lib, badiiy ongning eng yuqori darajasi sanaladi. Badiiy tafakkurning asosiy vazifasi ijodkor ongida voqelikning badiiy obrazlarini shakllantirish, shuningdek, badiiy ijodni iste'molchilarini onggiga obrazli, etkaza olishdan iborat. Badiiy tafakkur badiiy ongning boshqa shakllari bilan o'zaro aloqada davom etadi va ijodiy jarayonning barcha bosqichlarida faoliyat ko'rsatadi:

- * hayotiy taassurotlarni to'plash,
- * asar g'oyasini yaratish,
- * uning ushbu badiiy san'at turining o'ziga xos vositalari yordamida materialda mujassamlanishini yaratadi.

Badiiy ijodni rivojlantirishda albatta tafakkur va ong rivoji va uning bosqichlarini ta'kidlash, uni shakllantirish bosqichlarini anglash lozim. Ijod - bu ongning oliy darajasi, estetik olamni anglash faoliyatning yuqori va ancha murakkab shakli bo'lib, bunday konnitiv jarayon faqat insonga hosdir. Ijod insonning barcha psixik jarayonlarni, barcha bilim, malaka, barcha hayotiy tajriba, ahloqiy, jismoniy kuchini mobilizasiyasi natijasida o'ziga xos va tarixiy-ijtimoiy, betakror sifat yangiliklari bo'lib bu ijodkorlik qobiliyati tug'ma va orttirilgan xolda namoyon bo'ladi.

Badiiy ijod ijodkorning ob'ektiv borliqni o'z qarashlari orqali turli qiyofalarda his qilish, uning shakldagi xususiyatlarini badiiy asarlar va obrazlar tarzida aks ettirishdir. Quyidagi modelda badiiy – ijodiy tafakkurdan badiiy estetik kompetentlikkacha bo'lgan tadrijiy jarayon tasvirlangan bo'lib, etuk ijodkorning shakllanishidagi ongning faoliyat yo'li sifatida tahlil etiladi.



2-rasm. Badiiy ijodiy tafakkurni istiqbolli va faoliyatli metodik shakllanishi.

Ijodkorning ish faoliyatidagi ijodiy jarayonining murakkabligi - bular barchasi badiiy san'atda etuk mutaxassislik majburiyatini yuklaydi. Amaliy va tasviriy, dizayn sohalarida ijod qilayotgan ijodkorning faoliyatida ancha yashirin, "ichki" sezgi, hotira, tafakkur va boshq.) faoliyat bo'lsada, unda ijodning natijalari yaqqol ko'rindi. Hissiyot – ijod kuchlari orasida alohida o'rinni

egallaydi. Hissiyot idrok, sezgi, hotira asosida, shuningdek badiiy - obrazli tafakkur va boshqalar bilan insonga hayotdan olgan taassurotlar jamlanmasiga ega bo'lishni taqozo etadi va bu sohada tasavvurning yuqoriligi badiiy ijodning yuksalishiga samarali ta'sir o'tkazadi.

Yaratilayotgan badiiy ijod na'munalari inson tasavvuri va tafakkurining maxsuli sifatida, ijodkorning g'oyaviy-estetik mazmundagi dunyoqarashini, falsafiy tushunishni ham qamrab oladi.

Badiiy ijod na'munalari soha mutaxassislaridan o'ziga xos yorqin ijodkorlikni, mustaqillikni, o'zining shaxsiy qarashlariga va xayolot dunyosiga ega bo'lishi hamda olamni qabul qilishdagi dunyoqarash kengligi bilan ifodalanadi. Badiiy ijodkorning kreativ fikrlashi va o'ziga xos badiiy ijod na'munalarini yaratishida, badiiy hayol zaruriy omil bo'lib sanaladi. Zero ijodkorning yaratayotgan asarining badiiy san'at asari darajasida qadrlanishi, soha mutaxassisidan badiy obrazlilik talab etadi.

Xayol – ijodda asosiy va o'ziga xos natija ko'rsatuvchi ijodiy kuchdir. Badiiy ijodda uning ixt iyoriy, ixtiyorsiz, yaratuvchi ijodiy hayol kabi tafakkur jarayonlarining barchasi ishtirok etadi. Bular ichida albatta ijodiy faoliyatda ijodiy hayol katta o'rinni tutadi. Ilhomlanish – insonning mehnat jarayonidagi eng ko't arinki ruxiy holatidir. Rassomning ijodiy mehnat ida ilhomlanish, aktiv ijod kuchlaridan biri sifat ida ahamiyatli rol o'ynaydi.

Ilhomlanish – go'yo ijodiy, ma'naviy, jismoniy jihat dan qattiq bosim berganday tuyulsa-da, lekin amaliy jihat dan rassom uchun bu vaziyat juda engil kechgan, unda hamma narsaga oson erishilgan, ijodiy topshiriqlar juda tez echilgan bo'ladi. Bu engillik shu narsa bilan bog'liq bo'ladiki, bunda rassom katta hayotiy taassurotlar zaxirasiga ega edi va katta qiziqish va quvonch bilan ishlagan edi. Bunda uning ijodiy hayoli va obrazli tafakkuri faol ishlagan edi. Bularning barchasi sonning sifat darajasiga o'tishiga – natijada, qattiq Ilhom bilan ishlangan mehnat badiiy asarni dunyoga keltiradi.

Ijodkordagi xis qila olish qobiliyati "intuisiya" bo'lib, topqirlik, sezgirlik atamalarining sinonimi sifatida, inson ruhiy faoliyatida – ya'ni ijodiy mexnatda, xususan badiiy ijodda katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga so'zsiz intuisiya hotira, tafakkur va obrazli tasavvur bilan jips aloqada bo'ladi.

Boshqa tomondan, ijodiy fikrlashni o'rgatish badiiy tafakkur asoslarini yaratish sanalsada, shu bilan birga bu ikki tushuncha bir xil ma'nani anglatadi. Maktabda ijodiy fikrlashni shakllantirish (ta'lif) ning ahamiyati o'quvchilarini o'z iste'dodlarini kashf etish, rivojlantirish va aniqlashda, qo'llab-quvvatlashda ta'larning roli bilan belgilanadi. Shunday qilib, uzuksiz ta'lif bolalarni o'zlarini yashayotgan jamiyatning bir qismi ekanliklarini va rivojlanishga hissa qo'shadigan ijodiy resurslarga ega ekanliklarini his qilishda muhim rol o'ynaydi. Ijodiy fikrlash darsning tematik tushunchalarini oldindan belgilangan o'quv maqsadlari kontekstida tushunish, tushunish vositasiga aylanishi imkoniyatlarini o'rganish pedagogik qiziqish uyg'otadi, shu bilan birga o'quvchilarining motivasiyasi va qiziqishini oshirish uchun yangi ta'lif shakllarini ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Xulosa. Nazariy nuqtai nazardan, badiiy fikrlashning kognitiv (kognitiv) asoslarini tavsiflash va tushuntirish tadqiqotchilar uchun qiyin maqsad bo'lib qolmoqda: shunday qilib, badiiy jarayon ijodiy fikrlashni tadqiq qilishning turli yondashuvlari asosida tavsiflanadi. Ushbu tadqiqotlar natijalari badiiy ta'limga ta'sir ko'rsatdi va ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda, shuning uchun san'atning bir qismi sifatida badiiylikni o'rgatishning markazida nafaqat o'rganish jarayonlari va natijalarini, balki yondashuvlar, qarashlarga oid zamonaviy nazariyalarni ham tushunish kerak. Zamonaviy badiiy fikrlash amaliyotiga asoslangan bu harakat albatta badiiy ijodkorning shakllanishida muhim jarayon sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir". O'z AS, 2017 yil 4 avgust
2. Botirova.Sh.I., adabiy ta'lif klasterining ilmiy-nazariy asoslari. 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi pedagogika fanlari doktori

- (doktor of Science), ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. Chirchiq-2021.
3. Umarov.A.S Uzluksiz ta'lim tizimida badiiy ta'lim innovasion klasteri. "International scientific research conference" Belarus, 2022 - International scientific-online conference
 4. A.S.Umarov// uzluksiz ta'limda zamonaviy san'at maktablarini tashkil etishning Klaster tamoyillari // ReFocus. 2022. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/uzluksiz-talimda-zamonaviy-sanat-maktablarini-tashkil-etishning-klaster-tamoyillari>
 5. Магдиева, С. С. Стратегические приемы развития творческих способностей учащихся и роль художественного мышления в школе / С. С. Магдиева, Ф. А. Абдумаджитова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 18 (308). — С. 507-510. — URL: <https://moluch.ru/archive/308/69601/>
 6. Краткий словарь по эстетике/<https://esthetiks.ru/mishlenie-hudozhestvennoe.html>